

## BESH TASHABBUSGA

Hazrat Navoiydan boshlangan kuylar,  
Mirzo Boburdan ham kechgan har o'ylar.  
Amir Temurdan bu me'ros tuyg'ular,  
Beshta tashabbusda ko'rinnish bugun.

Barcha ilmlarning sirlarin ochib,  
Eng yorug' yo'llarga intilar yoshlari,  
Mana Ulug'beklar, zamonlar oshib,  
Beshta tashabbusda ko'rinnish bugun.

Beshta tashabbusning beshta ifori,  
O'zbekiston bo'ylab taralar bugun.  
O'zbek buyuk xalqdir, uning SHavkati,  
Shahrati barchaga rahnamo bugun.

Boqing o'zbegimning maktablariga,  
Boqing har ilmning poydevoriga.  
Eng dono, eng oqil farzandlar mana,  
Beshta tashabbusdan nur olar bugun.

Baxtidan mammundir har bir o'g'il qiz,  
YOnida tog' bo'lib turar ustozlar.  
Ilm daryosiyu, ilm osmonida,  
Bu beshta tashabbus yagona bugun.

Beshta tashabbusga javoblar aytib,  
Ma'rifat yo'lini bo'ston qilamiz.  
Shukronalar qilib buyuk ollohga,  
Biz hizmat qilamiz O'ZBEKISTONGA!



## 5 ta muhim tashabbusga bag'ishlanadi.

1-tashabbus.

Adabiyot ,musiqa san'at ,  
Oshno etar ezguliklarga .  
Teatr bu hayot maktabi,  
Chek qo'yadi yovuzliklarga.

2-tashabbus. ♀ ♂ ♂

Sport tinchlik elchisi,  
Chiniqtirar bizlarni,  
Dunyolarga tanitar ,  
Kuchli o'g'il-qizlarni.

3-tashabbus.

Kompyuter bu manba ,  
Foydalangin sen to'g'ri.  
O'zinga bog'liq bari,

Keraklimi, noto‘g‘ri.

#### 4-Tashabbus

Kitobga do‘st bo‘lganlar,  
Olam sirini bilar.  
Kelajakda el uni ,  
Doimo hurmat qilar.

#### 5-tashabbus.

Ayol qiz ishli bo‘lsa  
Oilada bo‘lar baraka.  
Kasb-kor kerak doim ,  
Oshar bilim,malaka.

#### Besh tashabbus

YUrtboshimiz chiqardi farmon,  
YOshlarimiz bo‘lsin bilimdon.  
Beshta muhim tashabbus bilan  
Izlanamiz kelajak tomon!

Adabiyot-so‘zning san’ati,  
Musiqaning nozik xilqatin  
Teatrga qo‘yamiz ixlos  
Biz san’atni etgaymiz e’zoz!

Jismonan sog‘, bo‘lgin pahlavon,  
Sport bilan oshno tutingin  
YUragingda qolmaydi armon  
YUrt bayrog‘in ko‘kka ko‘targin!

Izlan, o‘rgan, dunyoni tani  
Barchaning bor go‘zal vatani  
Kompyuterni, internetni bil,  
Shu el uchun ixtiolar qil!

Kitobni sev, uni asragin,  
Do‘st deb bilgin-yodda saqlagin  
Kitob nurdir, kitob ziyodir  
Qalblar uchun mehrigiyodir!

Uvaysiyalar, Zulfiyalarning,  
Davomchisi lobar qizlardir  
Sport, fanda, faol hayotda  
Mehnat qilgan a’lo qizlardir!

# BESH TASHABBUS-BESH IMKONIYAT

Do'stim bekor o'tmasin kuning,  
Ilm bilan bo'lgin yuzma-yuz.  
Qara axir bizga sharoit,  
Yaratmatmoqda beshta tashabbus.

Tabiatni turfa tasvirlab,  
Rasm chizib bera olgin tus.  
YOki qo'shiq aytgin baralla,  
Seni qo'llar beshta tashabbus.

Sog'lom tana, norg'ul bo'l doim,  
Champion bo'l, olg'a yur doim,  
Sport bilan mashg'ul bo'l doim,  
Senga yo'ldosh beshta tashabbus.

Internetdan bilgin jahonni,  
YAngilikni tezda bilib ol.  
Charchoqlarni engish chun bir oz,  
Mayli ozroq o'yin o'ynab ol.

Kompyuter, texnika asri,  
Rivojlanib bormoqda xanuz.  
Sen ham o'qib, o'rganib olgin,  
Imkon berar beshta tashabbus.

Kitob bilan do'st bo'lib olgin,  
O'qib ko'ngling to'lsin nurlarga.  
Tarix bizni osonlik bilan,  
Etkazmagan ushbu kunlarga.

Kitob o'qi, kitob sovg'a qil,  
YOshlar bizdan olsinlar o'rnak.  
Maktab uchun sovg'a qilsak gar,  
Bir kitob ham bo'ladi ko'mak.

Ishsizlik ham chekinar ortga,  
Har kim halol rizqini terar.  
Yangi yangi ish o'rirlarni,  
Besh tashabbus yaratib berar.

Besh tashabbus besh imkoniyat,  
Do'stim uni sovurma ko'kka.  
Hammaside foydalangin kel,  
To'g'ri yo'lni ko'rsat yurakka.



## BESH TASHABBUS

Odil qaror yurtboshimizdan,

Saboq bo'lsin beshta tashabbus,  
Ibrat bo'lib har doim bizga,  
Mayoq bo'lsin beshta tashabbus.

Komillikka intilib har dam,  
Zabt etaylik cho'qqilarni ham,  
Yo'llarimiz yoritguvchi sham,  
Chiroq bo'lsin beshta tashabbus.

Ertamiz bor yorqin, ulug'vor,  
Tuprog'imiz,gulzor,chamanzor,  
Ko'ksimizda g'urur,iftihor,  
Panoh bo'lsin beshta tashabbus.

Imkonimiz er bilan osmon,  
YUksaklarni etaylik makon,  
Buyuk maqsad yo'lida har on,  
Hamroh bo'lsin beshta tashabbus.

Shomollarga sochma shaxtingni,  
Sovurma hech aziz vaqtingni,  
Ilm o'rgan, topgin baxtingni,  
YAroq bo'lsin beshta tashabbus.

Ilm bilan ulug'dir inson,  
Dunyo asli bir mard- u,maydon,  
Boshimizda hilpirab har on,  
Bayroq bo'lsin beshta tashabbus.

Odil qaror yurtboshimizdan,  
Saboq bo'lsin beshta tashabbus,  
Ibrat bo'lib har doim bizga,  
Mayoq bo'lsin beshta tashabbus.

### XURSHID KARIM.

Besh tashabbus

Besh tashabbus, besh mayoq,  
Kabi tinmay porlaydi.  
Yurtboshimiz bizlarni,  
Yuksaklarga chorlaydi.

Iste'doding bor-ku kel,  
Intil bolam, yuksal, o's.,  
Sen yurt uchun keraksan,  
Der birinchi tashabbus.

Sportni sevasanmi,  
Yugur, chiniq, olg'a bos.  
Ikkinci tashabbus bil,  
Seni qo'llar qishu-yoz.

Uchinchi tashabbus der,  
Jahon tomon intil, shosh.  
Internetda ishlay bil,  
Bo'lsang hamki keksa-yosh.

Kitobni qo'ldan qo'yma,  
O'qi sen komolga yet.  
To'rtinchi tashabbusni,  
Do'stim sen ham targ'ib et.

Ayollarga ish bering,  
Yarating siz sharoit.  
Beshinchchi tashabbus bu,  
Shunda gullar ona yurt.

Besh tashabbus, besh mayoq,  
Kabi tinmay porlaydi.  
Yurtboshimiz bizlarni,  
Yuksaklarga chorlaydi!

Muzrob Mo'minov  
Ishtixon tumanidagi 59-maktab matematika fani o'qituvchisi.

Beshta muhim tashabbusga  
atalgan she'r

Dunyolarni egallab,  
Cho'qqilarga chiqdik biz.  
Yurtboshimiz madadkor  
Qo'llar beshta tashabbus.

Musiqa chal ,she'rlar yoz,  
Sen hohlasang rasm chiz,  
Aktyor bo'lmoqchimisan?  
Qo'llar beshta tashabbus.

Sport bilan shug'ullan  
Boks, tennis ,suvda suz  
Jismonan chiniqasan  
Qo'llar beshta tashabbus.

Kompyuter asri bu  
Kerakli dasturlar tuz.  
Xalqqa tegsin zo'r foydang  
Qo'llar beshta tashabbus.

Kitob nurdir ilmning  
Dengizida sho'ng'i ,suz  
Boshqarasan dunyoni  
Qo'llar beshta tashabbus.

Bizda hamma teng erur  
Teng huquqli yigit -qiz  
Bo'sh o'tirma tik ,pishir  
Qo'llar beshta tashabbus.

Po'latova Mastura Nuriddinovna